



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

Ўзбекистон худудида
тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Fotimaxon Ibragimovna Ergasheva Jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish funktsiyalari va tamoyillari	156
Xilola Nematovna Ochilova Oliy ta’lim tizimida pedagog-xodimlarni boshqarishning ahamiyati	162
Niyozxo’ja Bahroil o’g’li Yahyoxonov Samsung kompaniyasining marketing faoliyati tahlili	168
Xilola Nematovna Ochilova, Asilbek Po’lat o’g’li Ne’matov Oliy ta’lim muassasalarida pedagog-xodimlarni boshqarishning samaradorligini baholash yo’llari	173
ИНВЕСТИЦИЯ	
Musurmon Axmadovich A’zamov, Ra’no Sherali qizi Xoliqulova, Muzaffar Janobiddinovich Suyunov Raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiyalarning o’rni va ahamiyati	177
Ozodbek Shuhrat o’g’li Jumaqulov Investitsion jozibadorlikni oshirishni iqtisodiy rivojlanishga ta’siri	181
МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ	
Nuriddin Elamonovich Ernazarov Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig’ini soliq bazasini hisoblash amaliyotini takomillashtirish	188
Bobir Xo’jaqul o’g’li Qilichov Sug’urta bozorlari va global turizmning o’zaro bog’liqligi	191
Зариф Юсупович Аминов Хизмат кўрсатувчи корхоналар иқтисодий хавфсизлиги ҳолатини баҳолашда қўлланиладиган кўрсаткичлар тизими ва уларни аниқлаш йўллари	194
То’лиқин Ismatulla o’g’li Yahyoyev Pul oqimlari harakatini moliyaviy hisob xalqaro standartlariga ko’ra aks ettirilishi	198
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Бекзод Сайдазим ўғли Бурхонов Инсон ресурслари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар ва унга таъсир этувчи омиллар	202
Шахриёр Шодиёрович Тураев Адвокатлик тузилмалари адвокатга иш ҳақи тўловлари ва унинг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш	206
Baxtiyor Xushvaktovich Azizkulov, Musurmon Axmadovich A’zamov, Dilafruz Asqarjon qizi Uroqova Klasterlar faoliyatini ekonometrik prognozlash	210
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Feruz Kubaymurodovna Ismoilova Ta’lim xizmatlari bozorida malakali kadrlarga bo’lgan ehtiyojni shakllantirish asoslari	215
Akram Abduraxmonovich Azizqulov, Is’haq Abduraxmonov Xizmat ko’rsatish odobi Yusuf Xos Xojib talqinida	219
Khasan Khankeldiyev, Shakhrukh Bobojanov A study on preference for either online education courses or traditional ones at turin polytechnic university in Tashkent	223
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Ҳар биримиз 8,2 миллиард кишининг биримиз	227

inson kapitalini rivojlantirish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Shunday ekan, mamlakatlar ta’lim tizimini takomillashtirish orqali nafaqat ijtimoiy rivojlanishga, balki uzoq muddatli iqtisodiy taraqqiyotga ham erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гайнаров Д.А., Галямов Р.Р. Модель минимизации структурных дисбалансов рынка труда. Вестник УГАТУ. 2006,Т,8,№ 2. С. 89-92
2. Буланов В.С. Труд как фактор социально-экономического развития. -М.: Изд-во РАГС,2007.
3. Васильев В.Н., Питухин Е.А., Гуртов В.А. Рынок труда и рынок образовательных услуг в Российской Федерации. -М.: Техносфера,2007.
4. Абдулкеримов И.З. Факторы и условия развития интеграционных процессов на рынке образовательных услуг // Региональные проблемы экономической трансформации. - 2011. - № 2 (28). 286-292.
5. Eshboyev A.X.(2008). Bozor munosabatlariga o‘tish davrida ta’lim tizimining milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga ta’siri: i.f.n. dis. avtoreferati. –Т.: -25 b.
6. Xasanova.G. Oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning mazmuni. Academic Research in Educational Sciences. 2021.
7. Usmonova R.M. (2011) Ta’lim xizmatlari bozorida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish (oliy ta’lim misolida): i.f.n. ...dis. avtoreferati. -Т.: -25 b.
8. Вахабов А., Имамов Э. (2007) Высшее образование в Центральной Азии. Задачи модернизации. –М.: -214 с.
9. Abulxanova Q.H., Raximova D.N., va boshqalar. Davlat xizmati personalni boshqarish. Toshkent: Akademiya, 2002.

<p>Ф.Исмоилова</p> <p>Основы формирования потребности в квалифицированных кадрах на рынке образовательных услуг</p> <p>Аннотация. В статье рассматриваются этапы формирования спроса на квалифицированные кадры на рынке образовательных услуг. Обозначены механизмы реализации основных стратегий, способствующих обобщению спроса на специалистов разного уровня квалификации на рынке образовательных услуг и в организациях отрасли.</p> <p>Ключевые слова: образовательные услуги, спрос, трудовые ресурсы, профессиональная подготовка, международный рейтинг, потребность, интеграция, сотрудничество.</p>	<p>F.Ismoilova</p> <p>The basics of forming the need for qualified personnel in the educational services market</p> <p>Abstract. This article discusses the stages of shaping the demand for qualified personnel in the educational services market. It outlines the mechanisms for implementing key strategies that contribute to the generalization of the demand for specialists of various qualification levels in the educational services market and organizations in the sector.</p> <p>Keywords: educational services, demand, labor resources, professional training, international rating, need, integration, cooperation.</p>
---	--

Akram Abduraxmonovich Azizqulov – SamISI, Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, dotsent, fal.f.n.

Is’haq Abduraxmonov – Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali “Pedagogika va jismoniy madaniyat” kafedrası o‘qituvchisi

XIZMAT KO‘RSATISH ODOBI YUSUF XOS HOJIB TALQINIDA

<p>Annotasiya. Mazkur maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridagi falsafiy-axloqiy g‘oyalarning metodologik tahlili bayon etilgan. Shuningdek, maqolada xizmat ko‘rsatish, xususan, mehmon kutish odobi xususida alloma ilgari surgan rasional yondashuvining ilmiy ahamiyati yoritib berilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: Yusuf Xos Hojib, “Qutadg‘u bilig”, axloq, odob, mehmon, xizmat ko‘rsatish odobi, ovqatlanish odobi, idrok, farosat, ziyofat, poklik, halollik, aql, mantiqiy fikrlash, rasionallik.</p>

Kirish. Insoniyat tamaddunining ilk o‘choqlaridan biri sifatida e’tirof etilayotgan Markaziy Osiyo bashariyat ma’naviy taraqqiyotida o‘zining nodir asarlari bilan beminnat xizmat qilgan ko‘plab allomalarni yetishtirib berdi. Qomusiy mutafakkir allomalarimiz ilm-fan va madaniyatning barcha sohalari bo‘yicha ulkan meros qoldirib ketdilar. Ayniqsa, ajdodlarimiz

tomonidan sharqona odob-axloq falsafasiga oid yozib qoldirilgan noyob asarlar xorij olimlar tomonidan hamon yuqori baholanib kelinmoqda. Mutafakkir ajdodlarimiz tomonidan bayon etilgan axloq-odob qoidalarida inson faoliyatining barcha qirralari qamrab olinadi. Xususan, allomalarimiz tomonidan mehmon kutish va xizmat ko'rsatishni musulmon sharq etiketiga xos bo'lgan jihatlar alohida bayon yetiladi. Mehmon kutish va unga xizmat ko'rsatish odob-axloq qoidalari ayniqsa, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilik” asarida batafsil yoritib beriladi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: Turkiy xalqlarning ulug‘ shoiri Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig” asarida ham insonning bilim quvvati va aqliy salohiyati behad ulug‘lanadi”[1,133].

Biz mazkur maqolada alloma tomonidan bayon etilgan mehmon kutish va xizmat ko'rsatish etiketining mohiyatini yoritishga harakat qilamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Qutadgu bilig”ga doir ilmiy ishlar bir necha yo‘nalishda olib borilgan, biz bu o‘rinda tarixiy, ijtimoiy-gumanitar, lingvistik, umumfilologik, matnshunoslik, she‘rshunoslik, etnografik, pedagogik va boshqa aspektlarni qayd etishimiz mumkin. Bu borada, ayniqsa, G.Vamberi, M.Kuprulizoda, Fitrat, A.Sa‘diy, R.R.Arat, N.I.Ilminskiy, V.V.Radlov, S.Y.Malov, N.N.Yudaxin, A.Samoylovich, P.M.Melioranskiy, V.V.Bartold, N.A.Baskakov, Y.S.Bertels, A.N.Kononov, A.A.Valitova, I.V.Stebleva, N.M.Mallayev, A.P.Qayumov, G‘.A.Abdurahmonov, Q.Karimov, Q.Sodiqov va boshqalarning alohida xizmatlari bor [2,5]. Tadqiqot uchun bosh obyekt Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari tadqiq etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Markaziy Osiyoning yirik mutafakkiri Yusuf Xos Xojib tomonidan ishlab chiqilgan mehmon kutish va ovqatlanish odob qoidalarini yoritishda obyektivlik, retrospektiv tahlil, mantiqiylik va tarixiylikning birligi, qiyosiy tahlil va shu kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ming yildan buyon sharqona tarbiyaning nazariy asosi bo‘lgan Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilik” asari ham shunday ma‘naviy meros sifatida turkiy xalqlar tafakkuri xazinasining noyob durdonasi, odob axloq falsafasining qomusi hisoblanadi.

Odob-axloq falsafasining qomusi hisoblangan mazkur asar insoniylikning go‘zal xislatlari: halollik, diyonatlik, oqilonalikni tarannum etiladi. Asarda xizmat ko'rsatish odoblari, xususan, mehmon kutish va unga xizmat ko'rsatishga oid odob-axloq qoidalari batafsil yoritib berilgan. Ma'lumki musulmon Sharq xalqlari etiketida mehmon kutish va unga xizmat ko'rsatish odobiga alohida e'tibor qaratilgan. Yusuf Xos Xojib ham mazkur an'anani davom yettirib, asarida mehmonga borish va mehmonga xizmat ko'rsatishning muayyan etiketi - axloq qoidalarini bayon etar ekan shunday deydi:

Beklar dasturxoniga taklif qilsa gar,
 Odob bilan osh ye, bil, bu ham hunar.
 Ovqatni o‘ng qo‘ling bilangina ol,
 Lek avval, ey oqil, haqni tilga sol.
 O‘zganing rizqiga solma nazar, qo‘l,
 Ey yaxshi, oldingda borga rozi bo‘l[3.339].

Alloma fikriga ko‘ra ziyofatga chaqirilgan mehmon ma‘lum odob qoidalariga, avvalo, islom ahkomlariga rioya qilishi, ya‘ni dastlab “bismilloh”ni aytishi, so‘ng o‘ng qo‘li bilan ovqatlanishi lozimligini ta'kidlaydi. Ziyofatda birovning ovqatlanishiga tikilib qaramaslik, o‘z oldiga qo‘yilgan taomlarni iste‘mol qilishni alohida uqtirib o‘tadi.

O‘zganing oldiga qo‘l cho‘zma, tamom,
 Qarshingda boriga sabr qil mudom
 Suyak g‘ajib, pichoq tutma mehmonda
 Bo‘lma ochko‘z, besabr, nafsi osmonda[377].

Ziyofatda mehmon saqlanish lozim bo‘lgan illatlarni ham ta'kidlar ekan, shoshib ovqatlanmaslik, shuningdek keragidan ortiqcha takalluf kutishni tanqid qilar ekan shunday deydi:

Yutoqib yema ham shoshib tez yutma,
 Ayoldek noz yetib takalluf kutma[3.339].

Yusuf Xos Xojib asarida har bir mehmon ziyofat jarayonida o‘z izzatini bilishi va mezbonga nisbatan hurmatda bo‘lishi lozimligini uqtirar yekan, shunday deydi:

Qanchalar bo‘lsang to‘q, but, farovon,
 Qadring-chun deb bil yozgan dasturxon(339).

Allomaning “Qutadg‘u bilik” asarida ziyofatga mezmon tayyorgarlik ko‘rish jarayonida

nimalarga e'tibor qaratilishi lozimligi quyidagicha bayon yetadi:

Mehmon chaqirmoqni qilsang gar murod
Taraddud ko'r, bo'lsin dasturxon obod.
Pok bo'lsin joy, idish, ust-bosh, manzara
Pokiza dasturxon ne'mati qara.
Qo'y totli ichimlik, yaxshi zo'r ovqat
Qo'l cho'zgan har mehmon aylasin rohat[3.339].

Mazkur satrlarda mezbondan saxovatli bo'lish lozimligi uqtirilmoqda.

Yusuf Xos Xojib xizmat ko'rsatish odoblarin ta'kidlar ekan, avvalo mehmonga halol va pok taom berish lozimligini quyidagicha ta'kidlaydi:

Beklar tabiati nozikdir o'zi,
Qachon yer gar pokmas bu osh, yey qo'zi.
Pok bo'lsa oshpaz, pok ovqat, bilinar,
Pok osh-suv sevib iste'mol qilinar[3.241].

Inson tabiatan tozalikka, halollikka, poklikka intilishini mezbondan doimo yodda tutishi lozimligini quyidagicha bayon yetadi:

Poklikni istamas odam juda kam,
Pokiza osh-suvni istar hamma ham[3.242].

Yusuf Xos Xojib “Qutadg'u bilik” asarida o'rta asrlarda turkiy xalqlar ijtimoiy hayotida mehmon chaqiriladigan ziyofatlarni, shuningdek ziyofatga chaqirilgan mehmonlarning tasnifini ham bayon yetadi.

Turfadir mehmonga aytguvchilar, bil,
Mehmon qilmoqlik ham, bilsang, xilma-xil.
Ulardan bittasi nikoh oshidir,
Yo sunnat, aqiyqa – to'ylar boshidir.
Yo do'st-u birodar taklif qilgan osh,
Katta, kichik yoki yaqin qarindosh(375)
Yo yo'qlov, xudoyi-aza osh derlar,
Yo unvon ziyofat - ish boshi derlar(376)

Alloma asarida ziyofatga taklif qilinganda albatta borish lozimligini, chunki mezbondan alohida tayyorgarlik ko'rganligini inobatga olish kerakligini ta'kidlar ekan, chaqirilmagan va aytilmagan ziyofatlarga bormaslikka chaqiradi.

Aytilgan joyga bor, qalblarin shod et,
Ham o'zing, ham ular ko'nglin obod et.
Kim mehmon qilay deb seni cheksa g'am,
Unga bor, oshin yeb dilin qil xurram
Bulardan boshqa gar oshning sababi,
Borma, tirriq bo'lar kishining ta'bi.[3.376].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Yusuf Xos Xojib ziyofatda mehmon rioya yetishi lozim bo'lgan axloqiy talablarni batafsil yoritadi.

Borsang, qay xil bo'lsa hamki ziyofat,
Odob-la ovqat ye, saqla nazokat.
To'q bo'lsang ovqatdan qo'l tortma sekin,
Ey qardosh, yonigda o'tirgan yesin[3.377]/
Ovqatni maqtab ye, totli bo'ladi,
Beka ham shod bo'lib, ko'ngli to'ladi.
Sen-chun osh qilsa kim chekib mehnat g'am,
Qadr yetmay diliga solmagin alam[3.378].

Yusuf Xos Xojib taomlanishning axloq-odob qoidalarini bayon yetish bilan birga gigiyena talablariga ham rioya yetish lozimligini ta'kidlaydi.

Ko'p yema, ovqatda saqlagil me'yor,
Bu haqda dononing shunday so'zi bor:
Ko'p yeyilgan ovqat tanda band bo'lur,

Hazmni buzur, so‘ng bir dardmand bo‘lur[3.378].

Zamonaviy salomatlik gigiyenasi talablarni alloma o‘n asar avval aytib o‘tgan edi. Alloma asarida ziyofat jarayonida mehmon hamda mezbob rioya yetishi lozim bo‘lgan axloq-odob qoidalarini batafsil mantiqiy rasional tarzda bayon yetadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo‘lsak, birinchidan, musulmon Sharq xalqlari etiketida mehmon kutish va unga xizmat ko‘rsatishning odob-axloq qoidalariga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, mutafakkir allomalarimiz bu qoidalarni o‘z asarlarida nazariy jihatdan asoslab berganlar.

Ikkinchidan, yetuk alloma Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilik” asari mehmon kutish va unga xizmat ko‘rsatish odob qoidalari rasional tarzda batafsil yoritib bergan.

Uchinchidan, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilik” asari bayon yetgan mehmon kutish va unga xizmat ko‘rsatishning axloqiy talablar hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Shu bois mutafakkir allomalar tomonidan bayon yetilgan sharqona etiket qoidalari, xususan, mehmon kutish va unga xizmat ko‘rsatish axloq-odob qoidalarini bugungi kunda ta‘lim-tarbiya jarayonida kengroq targ‘ib yetish maqsadida quyidagilarni **taklif va tavsiya** etamiz:

Birinchidan, ta‘lim-tarbiya jarayonida, ayniqsa uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bosqichlarida Yusuf Xos Xojib ilmiy merosini tarbiyaviy ahamiyatini kengroq yoritish lozim. Ikkinchidan, “Odobnoma” va “Tarbiya” darslarida ovqatlanish etiketini bayon yetgandan alloma ilmiy merosidan samarali foydalanish zarur. Uchinchidan, ommaviy axborot vositalarida, ayniqsa ko‘rsatuv va radio yeshittirishlarda Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilik” asaridagi axloqiy ta‘limotini kengroq yoritib borish maqsadga muvofiqdir, zero, alloma ilgari surgan sharqona etiket qoidalari bugungi axborotlashgan jamiyat bosqichida barkamol avlodni tarbiyalashda zaruriy manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston –Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2024y.-560 b.
2. To‘xliyev B. Yusuf Xos Hojib va turkiy xalqlar folklori. - Toshkent:“ VAUOZ ” nashriyoti, 2013.-B.5.
3. Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yeltuvchi bilim”). – T, “Akademnashr”., 2015.
4. Ravshanov F. “Saodatga eltuvchi bilim”ga qiziqib.../Yusuf Xos Hojib. “Qutadg‘u bilig”. Akademnashr. 2015.
5. Ravshanov, Fazliddin. Davlat fuqarolik xizmatchisining ma’naviy qiyofasi (Risola) [Matn] / F.Ravshanov. – Toshkent: «Ma’naviyat» nashriyoti, 2023. – 296 b.
6. Azizqulov A. Mustafayev J. Yusuf Xos Xojib ilmiy merosida rasionallik tamoyili// Imom Buxoriy saboqlari №4 2019yil 131-133 betlar
7. Yusuf Xos Xojib ilmiy merosida til va tafakkur uyg‘unligi//“DAVLAT TILI:TADQIQI,TA’LIMI VA AMALIYOTDA QO‘LLANISI” mavzusidagi xalqaro an’anaviy ilmiy-amaliy konferensiyasi MATERIALLAR TO‘PLAMI 62-66.

<p style="text-align: center;">А.Азизкулов, И.Абдурахмонов Этикет в сфере обслуживания в интерпретации Юсуфа Хос Хаджиба</p> <p>Аннотация. В данной статье описывается методологический анализ философских и этических идей в произведении Юсуфа Хоса Хаджиба «Кутадгу Билиг». Также в статье подчеркивается научное значение рационального подхода ученого к обслуживанию, в частности, к этикету приема гостей.</p> <p>Ключевые слова: Юсуф Хос Хаджиб, “Кутадгу Билиг”, мораль, манеры, гость, этикет обслуживания, этикет приема пищи, понимание, банкет, чистота, интеллект, логическое мышление, рациональность.</p>	<p style="text-align: center;">A.Azizkulov, I.Abdurakhmonov Service etiquette in the interpretation of Yusuf Khos Khadzhib</p> <p>Abstract. This article describes the methodological analysis of philosophical and ethical ideas in the work of Yusuf Khos Khadzhib "Kutadgu Bilig". The article also emphasizes the scientific significance of the scientist's rational approach to service, in particular, to the etiquette of receiving guests.</p> <p>Keywords: Yusuf Khos Khadzhib, "Kutadgu Bilig", morality, manners, guest, service etiquette, dining etiquette, understanding, banquet, cleanliness, intelligence, logical thinking, rationality.</p>
---	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

19.05.2025 йилда теришга берилди. 06.06.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0036А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.